



DEVELOPMENTS IN THE NAVOI REGION EDUCATION SYSTEM

Nargiza Jurayeva

Lecturer

Navoi Innovation University

Navoi, Uzbekistan

E-mail: njurayeva12@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Navoi, Karmana, school, higher education, IT park, youth, boarding school, educational reforms

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: This article analyzes the reforms implemented in the education sector in the Navoi region in the past and today. Statistical data on newly built and operating schools, preschool education and higher education institutions in Navoi region are presented.

NAVOIY VILOYATI TA'LIM TIZIMIDAGI RIVOJLANISHLAR

Nargiza Jurayeva

o'qituvchi

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti

Navoiy, O'zbekiston

E-mail: njurayeva12@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Navoiy, Karmana, maktab, oliy ta'lim, IT park, yoshlar, internat, ta'lim islohotlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy viloyati o'tmishida hamda bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Navoiy viloyatida yangidan qurilib faoliyat olib borayotgan maktablar, maktabgacha ta'lim hamda oliy ta'lim muassasalari haqida statistik ma'lumotlar keltirilgan.

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Наргиза Джураева

Преподаватель

Навоийский инновационный университет

Навои, Узбекистан

E-mail: njurayeva12@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Навои, Кармана, школа, высшее образование, IT-парк, молодежь, школа-интернат, образовательные реформы

Аннотация: В статье анализируются реформы, проводимые в сфере образования в Навоийской области в прошлом и настоящем. Представлены статистические данные о вновь построенных и действующих школах, дошкольных образовательных и высших учебных заведениях Навоийской области.

Kirish. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim va tarbiya masalalari ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, bizning asosiy maqsadimiz- zamonaviy bilim va kasb – hunarlarni egallagan, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdir.[1] Butun Respublikada bo‘lganidek Navoiy viloyatida ham mustaqillik yillarida ta’lim va maorif sohasiga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi» Qonunda belgilangan vazifalar hamda Prezidentimizning sohadagi islohotlarni jadallashtirishga oid farmonlarini amalga oshirish borasida Navoiy viloyatida ta’lim tizimida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. “Navoiy viloyati: O‘llashunoslik atlası” ushbu atlasda viloyatning tarixi, madaniyati va ta’lim tizimi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari A.Muhammadjonovning “Tarix falsafasi – ma’naviyat ko‘zgusi asarida Navoiy viloyatining ta’lim sohasidagi tarixiy rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. A.Zaripov, Sh. Shernazarning “Karmana kechmishi” nomli asarida ham Navoiy viloyati ta’limi haqida, xususan, Karmana tumanining ta’lim tarixi batafsil yoritilgan. “Karmana ning O‘zbekiston tutgan o‘rni beqiyosdir, bu qadimiy shaharning yoshi qarib azim shahar Buxoroning yoshiga borib taqaladi”[2,7] deyilgan asarda.

Tadqiqot metodologiyasi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunga ko‘ra maktabgacha ta’lim turi birinchi pog‘onada turadi. Navoiy viloyatida hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalari soni 305 ta bo‘lib shundan 242 tasi bolalar bog‘chasidir. Navoiy viloyatida maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim–tarbiya beruvchilar soni 2906 kishidan ortiq. Bu murabbiylarning 156 tasi oliy ma’lumotli, 2228 tasi maxsus oliy ma’lumotli, 494 nafari o‘rta maxsus, 28 ta murabbiy va o‘kituvchilar pedagogik sinfni tugatgan. Mustaqillik yillarida Navoiy viloyatida maktabgacha ta’lim muassasalarida ularning moddiy-ijtimoiy holatida o‘zgarishlar yuz berdi. Bozor munosabatlari qaror topayotgan bir davrda bu ta’lim sohalarida o‘zgarishlar bo‘lish jarayoni sodir bo‘ladi. Navoiy viloyatida mustaqillikka qadar bu ta’lim sohasi mablag‘lari davlat byudjeti hisobidan qoplangan bo‘lsa, xozirgi kunda ularning aksariyati nodavlat ya’ni xususiy ta’lim muassasalari makomiga ega bo‘lmokqalar. Navoiy viloyat maktabgacha ta’lim - tarbiya bosqichida xilma-xil toifadagi, turlicha muassasalarni ko‘rish mumkin. Ya’ni bolalar yashilari, bolalar bog‘chalari, yasli bog‘chalar, sog‘lamlashtirish bog‘chalari, xonadon bog‘chalari, aqliy jismoniy jihatdan nogiron bolalar bog‘chalari, xonadon bog‘chalari, mavsumiy bog‘chalar shular

jumlasidandir. Viloyatda maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalariga tortish lozim bo'lgan bolalarning umumiy soniga nisbatan ko'chilik qismi yasli va bog'chalarga qatnaydilar. Mustaqillik yillarida Navoiy viloyatida maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalari va oilalar uchun 17 nomdagi o'quv metodik qo'llanmalar 7 tilda 58 nomdagi yangi darsliklarga ega bo'ldilar[3,421].

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqiligi qo'lga kiritilganining dastlabki oylari 1992-yilning boshida Navoiy viloyati qayta tashkil etildi, shundan buyon viloyatning respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy hayotida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi yo'lida ulkan tarixiy ishlar amalga oshirildi.

Navoiy viloyatining insoniyat tamadduniga katta hissa bo'lib qo'shilgan qadimiy va boy tarixi, zamonaviy sivilizatsiyaga

Farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib voyaga yetkazishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan mamlakatimiz prezidenti yoshlar tarbiyasi va yurt kelajagining o'zaro chambarchas bog'liq ekaniga e'tibor qaratadi: “Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi xuddi shunday hayotbaxsh xususiyat kasb etib, xalqimizni yorug' kelajakka chorlab yangilanishga safarbar qilib, umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turdigan yaxlit ma'naviy asos va mezoniga aylanib bormoqda”[4,14].

Tahlil va natijalar. Navoiy viloyatining tarbiya va ma'rifat o'choqlarida amalga oshirilayotgan ishlar ham ayni shu ezgu niyatga qaratilgandir. Hozirda viloyatda 3ta maxsus maktab – internat, 2ta mehribonlik uyi, 365ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va bitta viloyat ixtisoslashtirilgan san'at maktab – internati, 2ta akademik litsey hamda 25ta professional ta'lim muassasalari, shularda 11ta kasb- hunar maktabi, 5ta kollej, 9ta texnikum va 3 ta oliy o'quv yurti – Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat konchilik instituti, Navoiy innovatsiyalar universiteti samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shunisi quvonarliki, viloyatda oliy o'quv yurtlarini, kasb – hunar kollejlari bitirib chiqqan yoshlarni ish bilan taminlashdek dolzarb masala ham muvaffaqiyatli hal etilyabti. Viloyatdagi o'nlab yirik sanoat korxonalari, yuzlab fermer xo'jaliklari, minglab kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari ilmiy va hunarli yigit – qizlarni o'z bag'riga chorlab, ularning ish va hayot tajribasini o'zlashtirishga yaqindan yordam bermoqda.

Barcha shahar va tumanlarda qurilib, kapital va joriy ta'mirlanib foydalanishga topshirilgan maktablar, professional ta'lim muassasalari va sport majmualari o'n minglab farzandlarimizning har tomonlama barkamol voyaga yetishda beminnat xizmat qilmoqda.

Navoiy viloyati bugun o'zining mashhur sportchi yigit - qizlari bilan haqli ravishda fahrlanadi. Navoiy shahridagi “Yoshlar” sport majmuasi, “Sug'diyona” stadionidan tashqari, viloyat tumanlarida 14ta stadion, 20 ta suzish havzasi, 407ta sport zali, 1294 ta sport maydonchasi, 21ta tennis korti mavjud. Viloyatdagi 11 ta bolalar va o'smirlar sport maktabida, 4 ta

ixtisoslashtirilgan maktabda 21 ming nafarga yaqin o'quvchi yoshlar professional sport ta'limini olayotgan bo'lsa, 79mingdan ortiq yoshlar sport seksiyalarida chiniqmoqdalar.

Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'layotgan iqtidorli qizlarning ko'pchiligi navoiylik sportchilar ekani ham quvonarlidir. Jumladan, shaxmatchi Mohinur Qahramonova hamda Sitara Safarova, tayekvandochi Zariya Qosimova hamda Dilfuza Xolbo'tayeva, dzyudochi Iroda Jumanova singari qizlarning sportdagi muvaffaqiyatlari nafaqat viloyat balki mamlakatimiz sporti rivojida ham o'ziga xos ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Viloyatda mavjud barcha ijtimoiy soha obyektlari (97%), umumta'lim maktablari (97%), maktabgacha ta'lim tashkilotlari (100%) va sog'liqni saqlash muassasalari (100%) yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulangan.

Viloyatning Navoiy va Zarafshon shaharlari hamda Karmana, Xatirchi, Qiziltepa, Nurota, Uchquduq, Tomdi tumanlarida aholi va yoshlarni kompyuter texnologiyalari, dasturlash hamda robototexnika yo'nalishlarida o'qitish, malakasini oshirish maqsadida 8ta hududda raqamli texnologiyalar o'quv markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ushbu markazlarning har birida yiliga 1000 nafardan ortiq yoshlarga va xotin qizlarga axborot kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishlarida zamonaviy bilimlar berilishi ko'zda tutilgan.

2021- yil may oyida viloyatda Respublika IT – park filiali ham ishga tushirildi. 2021-yil 30-yanvar kuni esa Navoiy shahridagi 8-sonli umumta'lim maktabi negizida informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan tayanch maktabi tashkil etildi. Maktabda zamonaviy informatika va robota texnika xonalari raqamli kutubxona mavjud.

Navoiy viloyatida bugungi kunda ta'lim jihatdan rivojlanib borayotgan maktablar qatoriga Karmana tumanidagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Hozirgacha ilm dargohida 270 nafar o'qituvchi ta'lim tarbiya berilgani ma'lum. Shundan 19 nafari maktabda 30 yildan ortiq, 30 nafari 20 yildan ortiq, 44 nafari 10 yildan ortiq yoshlarni e'zozlab, ilm o'rgatgani ibratlidir[5,3]. Ushbu maktabni bitiruvchi o'quvchilari bugungi kunda respublikamizning nufuzli oliygohlarida tahsil olib kelmoqdalar.

Navoiy viloyati Yoshlar texnoparki 2023 -yil ning iyun oyidan boshlab faoliyat yuritib kelmoqda. Navoiy viloyatining Navoiy shahrida joylashgan ushbu texnopark yoshlar, talabalar, olimlar hamda tadbirkorlik subyektlarining o'z loyihalari va g'oyalarini amalga oshirish va rivojlantirish uchun barcha sharoitga ega, zamon talablariga javob beruvchi eng so'nggi rusumdagi jihozlangan o'quv va ishlab chiqarish texnoparki hisoblanadi.

“Navoiy Yoshlar texnoparki” yiliga 500 nafar axborot – kommunikatsiya texnologiyalari sohaga qiziquvchi yoshlarni 8 ta “Web -dasturlash”, “Robotatexnika”, “Elektronika”, Grafik dizayn”, “Fashion- dizayn”, “Mobilografiya”, “SMM”, “Target” yo'nalishlarida o'qitish imkoniga ega[6].

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda Navoiy viloyati O‘zbekiston Respublikasida ta’limning rivojlanish darajasi bo‘yicha eng yuqori o‘rinlarni egallaydi. Ta’lim samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha quyidagi usullardan foydalish kerak deb hisoblayman:

- Navoiy viloyatida ta’limni rivojlantirish maqsadida ko‘proq xalqaro shartnoma va bitimlarni imzolar;

- Yoshlarni xorijiy mamlakatlarga tajriba almashish maqsadida o‘qishga yuborish;

- Maktab va oliy ta’lim muassasalarini jaxon standartlariga mos keluvchi kutubxonalar bilan ta’minlash.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” Toshkent 2023.
2. A.Zaripov, Sh. Shernazarning “Karmana kechmishi” Toshkent “Mashur press” 2019 7-bet
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи 3 китоб.Т «Шарқ» 2000 й 421 бет
4. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” “O‘zbekiston” Toshkent - 2023, 14-bet
5. Dildora No‘monova “Barkamol avlodni tarbiyalashda ta’lim – tarbiyaning roli” Navoiy -2024, 3-b.
6. NAVOIY YOSHLAR TEXNOPARKI FAOLIYATI VA ERISHILGAN NATIJALAR TO‘G‘RISIDA HISOBOT. 2023